

ONANGIZNI YIG'LATMANG

Ismatova Dilnura*Koson tumani 14-umumiy o'rta
ta'lism maktabi 9-A sinf o'quvchisi***Onangizni yig'latmang**

Dunyoga, kelar bir inson

Ulg'ayar yaxshi-yu yomon,

Baribir siz-ku siz inson,

Ey inson, onangizni yig'latmang.

Axir sizga bergen-ku oq sut,

Ustingizni u qilgan-ku but.

Sizni o'ylar qilib har kuni sukut,

Iltimos onangizni yig'latmang.

Tomchilasa ko'zidan bir yosh,

Charaqlamas osmonda quyosh

Farzand doim onaga sirdosh,

Ey farzand onangizni yig'latmang.

Ertalablar boshingiz silar,

Doim sizni duolar qilar

Baxtingizni ollohdan so'rар,

Iltimos onangizni yig'latmang.

Oqizmangiz hech ko'z Yoshin,

So'ndirmangiz umid imkonin

Charaqlasin doim quyoshin,

Ey inson onangizni yig'latmang.

Yo'lingizga qarab intizor,

Shirin so'zingizga bo'lar zor.

Ey inson onangizni xo'rлатмang,

Iltimos onangizni yig'latmang.

Ona bizga etar jon fido,

Yaxshi yo'lga qilar ro'baro.

Biz-chi biz qilaylik bir vafo,

Ey inson onangizni yig'latmang.

Ayting onadan boshqa kimigiz bor,
Ayting boshqa sizga kim vafodor.
Hech qachon onadan qilmangiz or,
Iltimos onangizni yig'latmang.

Bir gul sovg'a qildingizmi hech.
Ertaga bo'lishi mumkin balkim kech
Iltimos onangizni ko'nglini og'ritmang.
Ey inson onangizni yig'latmang,
Siz uchun yelib yuguradi har kun,
Uxlamasdan chiqadi har tun,
Sarfladi umrini sizga bir butun,
Iltimos onangizni yig'latmang.

Onangizdir bu Jannat,
Biling onangizdir g'animat.
Hayot-asli omonat
Ey inson onangizni yig'latmang
Dunyodagi yagona
Olam ichra bir dona,
Topolmaysiz boshqa bir ona
Iltimos onangizni yig'latmang.